

MENYER KASALLIGINING KELIB CHIQISH SABABLARI VA ALOMATLARI

Soliyev Ilhomjon Sobirovich

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa fanlari doktori (PhD)

Akbarova Muxlisa Ahmadali qizi

Farg'ona davlat universiteti Maktabgacha va boshlang'ich
ta'lim fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7631455>

Annotatsiya: Ushbu maqolada ko'proq yoshi katta insonlarda uchraydigan menyer kasalligining kelib chiqish sabablari va qanday alomatlar kuzatilishi haqida so'z boradi.

Kalit so'zlar: endolimfa, diareya, xuruj, jismoniy stress, vestibulyar tizim;

Abstract: This article will talk about the causes of the origin of menyer's disease, which occurs in more older people, and what symptoms are observed.

Keywords: endolymph, diarrhea, sensitivity, physical stress, vestibular system;

Menyer kasalligi - ichki quloq kasalligi bo'lib, bunda endolimfa suyuqligi ko'payib, ichki quloq bosimi oshadi. Kasallik dam-badam kuchli bosh aylanishi bilan o'tadi. Menyer kasalligi bilan xastalangan bemorning ko'ngli behuzur bo'lib qayt qiladi, ba'zan qulog'i shang'illab, yaxshi eshitmaydi. Xuruj vaqtida bemor o'zini idora qilolmay qoladi, yurolmaydi va hatto o'tirolmaydi.

Xurujdan so'ng u, odatda, o'zini sog' sezadi, biroq buni sog'ayish deb bo'lmaydi. Kasallik huruji qaytarilib turadi (haftada yoki oyda bir marotaba). Xuruj ko'p takrorlangani sari bemor tobora sekin eshita boshlaydi va bora-bora kar bo'lib qolishi mumkin.

Bemor birinchi marotaba murojaat qilganida shikoyatlariga alohida e'tibor berish, batafsil anamnez yig'ish, eshitish faoliyatini tekshirish zarur. Menyer kasalligi odatda bitta quloqqa ta'sir qiladi. Bu kasallikning sababi noma'lum, ammo olimlar buni ichki quloq naychalaridagi suyuqlik o'zgarishidan kelib chiqqan deb hisoblanadi.

Bu kasallik kar shifokor Prosper Meniere sharafiga nomlangan. U 1861-yilda labirintda gemmoragik ekssudatning to'planishi bilan kechadigan ichki quloqning yangi kasalligini tasvirlab berdi.

Kasallik ko'proq keksa odamlarga ta'sir qiladi, lekin bu degani yoshlarda uchramaydi degani emas, kasallik 17 yoshdan 72 yoshgacha uchrashi mumkin. Bu kasallik avval bir quloqda, keyin ikkalasida ham rivojlanadi.

Bosh aylanishi ko'rinishlari kelib chiqishi va sabablariga ko'ra farqlanadi. Mutaxassislar bosh aylanishini ikkita asosiy turga ajratadi: sistemali vestibulyar va haqiqiy vestibulyar tizim shakllanishiga bog'liq bo'lmagan bosh aylanishi.

Ko'ngil aynishi, qayt qilish, terlash, muvozanatni yo'qotish - bu belgilarning barchasi vestibulyar bosh aylanishiga xos hisoblanadi.

Sistemali bosh aylanishi migren xuruji vaqtida, qon bosimi bilan bog'liq muammolar, umurtqa pog'onasining bo'yin qismi osteoxondrozi va boshdan kechirilgan bosh suyagi va miya jarohatlari tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Menyer kasalligi bilan bog'liq bosh og'rig'i ham sistemali bosh aylanishi sirasiga kiradi. Bu xastalikda ichki quloq zaharlandi. Odatda bunday bosh aylanishi xurujlari quloqlarda shovqin va keyinchalik karlik rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Bemorlar to'satdan bosh aylanishi boshlanishidan shikoyat qiladilar. Bosh aylanishi odatda bir soatdan olti soatgacha, kamdan kam hollarda yigirma to'rt soatgacha cho'ziladi. Bu qayt qilish va ko'ngil aynishi bilan namoyon bo'ladi. Shuningdek, terlash, diareya, beqaror yurish kuchayishi mumkin.

Kasallik nomi sinonimlarga ega: endolimfatik tomchilar va endolimfatik gidropslar deb ham ataladi.

Menyerning uch shakli bor:

1 Og'ir shakli - hujumlar tez-tez (har kuni yoki har harta), 5 soatdan ortiq davom etadi. Bu vegetativ kasalliklar, muvozanat, og'ir doimiy eshitish halokati bilan namoyon bo'ladi. Ishda ishlash qobiliyati yo'qoladi va konservativ terapiya Samarasiz va remissiyalar qisqa bo'ladi.

2.O'rtacha og'irlik - hujumlar har hafta yoki oyda sodir bo'ladi va 5 soatgacha davom etadi. Vegetativ buzilishlar aniqlanadi va muvozanat o'rtacha karlik esa doimiy bo'ladi. Xujumdan keyin ishlash qobiliyati tiklanadi.

3.Yengil shakli - hujumlar qisqa muddatli, simptomlar yengil, eshitish halokati sekinroq rivojlanadi. Hujumlar orasida ishlash qobiliyati saqlanib qoladi va remissiyalar uzoq vaqtda takrorlanadi (bir necha oy yoki yillardan so'ng).

Menyer kasalligida bosh aylanishi eng og'ir alomatdir. Bu tizimli xarakterga ega, ya'ni bemorda uning atrofidagi narsalarning harakati yoki bemorning o'z o'qi atrofida aylanish hissi sodir bo'ladi.

Uni qo'zgatadigan sabalar:

- 1.Stress
- 2.aqliy yoki jismoniy stress
- 3.kuchli hidlar va tovushlar

Hujumdan bir necha kun oldin yengil muvozanat paydo bo'lishi mumkin. Quloqdagi shovqin kuchayishi yuz beradi. Bosh aylanishi xuruji ko'pincha ertalab yoki kechasi sodir bo'ladi. Hujumning davomiyligi o'rtacha 3 soatni

tashkil etadi, ammo uni bir necha daqiqaga qisqartirish yoki bir kunga cho'zish mumkin.

Agar haqiqiy bosh aylanishi, buyumlarning ikkita ko'rinishi, talaffuz yoki oyoq-qo'llar harakati buzilishi bilan kechsa, bu o'rinda gap bosh miya naychasi funksiyasi buzilishi haqida borishi mumkin. Bu holda nevrolog maslahati zarur bo'ladi. Bemor eng avvalo shifokorga ahvolini maksimal darajada tasvirlab berishi kerak. Bu to'g'ri tashxis va samarali davolash imkonini beradi.

Ko'z oldi qorong'ulashsa ba'zida bosh aylanishi ko'z oldi qorong'ulashishi, o'zlarini xushdan ketadigandek xis etishadi. Sistemali bo'lmagan bosh aylanishlar orasida psixogen yoki nevrotik bosh aylanishi birinchi o'rinda turadi. Bunda asabiylashgach birdan bosh aylana boshlaydi. Shunday ekan, yuqorida tilga olingan belgilar kuzatilsa, bo'lar bo'lmasga xavotirlanaversangiz, asabiylaahsangiz, kutilmagan og'riq, tomoqda nimadir tiqilib qolganlik hissini sezsangiz, nevrologdan tashqari psixoterapevt maslahatini ham olish va asablarni takshirtirish lozim. Eng muhimi bosh aylanish sabablarini topish bu esa kasallikni davolash imkonini beradi. Kimda bosh aylanishi takrorlansa, davriy yoki doimiy xarakterga ega bo'lsa, albatta shifokorga murojat qilib, to'liq tekshiruvlardan o'tish lozim shundagina muolajalar samara beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Defektologiyaning klinik asoslari
2. Soliyev I. S., qizi Ergasheva D. S. BOSHLANG 'ICH TA'LIM FANLARINI O 'QITILISH JARAYONIDA SHARQ MUTAFAKKIRLARI ME'ROSIDAN UNUMLI FOYDALANISH //RESEARCH AND EDUCATION. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 16-20.
3. Soliyev I., Akbarova M. INSON HAYOTIDA ESHITISHNING AHAMIYATI VA KARLIKNING TURLARI HAQIDA TUSHUNCHA //Eurasian Journal of Social Sciences, Philosophy and Culture. – 2023. – T. 3. – №. 2. – C. 25-27.
4. Ergasheva D. FORMATION OF CORRECT READING SKILLS IN PRIMARY SCHOOL PUPILS //Science and Innovation. – 2022. – T. 1. – №. 8. – C. 1675-1678.
5. Sobirjonovich S. I. EASTERN THINKERS'VIEWS ON EVERYWHERE EDUCATION OF CHILDREN //BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI. – 2022. – C. 309-314.
6. Ergasheva D. BARKAMOL AVLODNI MA'NAVIY YETUK QILIB TARBIYALASHDA BOSHLANG 'ICH TA'LIMNING O 'RNI //Science and innovation. – 2022. – T. 1. – №. B4. – C. 139-141.
7. uzsmart.uz
8. fayllar.org
9. med.o.uz